

**ERTA TURMUSH QURISHNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN  
SAMARALI PSIXOLOGIK CHORA-TADBIRLAR**

*Rahimova Shahlo Erkabayevna*

*Urganch tumani 13-sonli maktab amaliyotchi psixologi*

*Nazarova Muhayyo Maxmudovna*

*Urganch tuman 15-sonli maktab amaliyotchi psixologi*

*Hayitboyeva Muqaddas Bekpo'latovna*

*Urganch tuman 33-sonli maktab amaliyotchi psixologi*

*Karimova Mardona O'ktamovna*

*Urganch tuman 29-sonli maktab amaliyotchi psixologi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada yoshlar o'rtasida erta turmush qurish holatlarining psixologik sabablari hamda ularning oldini olishga qaratilgan samarali chora-tadbirlar yoritiladi. Shuningdek, o'smirlar va yoshlar bilan olib boriladigan profilaktik ishlar, ota-onalar va ta'lim muassasalari hamkorligining ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** erta turmush, yoshlar, psixologiya, profilaktika, oila, tarbiya, ijtimoiy muhit, qaror qabul qilish, motivatsiya, maslahat.

**KIRISH**

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida erta turmush qurish holatlari ayrim hududlarda uchrab turadi. Bu holat ko'pincha ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar bilan bog'liq bo'lib, yoshlarning kelajakdagi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ushbu muammoning oldini olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Erta turmush qurishning asosiy sabablaridan biri — yetarli hayotiy tajriba va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasining shakllanmaganligidir. Yoshlar ba'zan hissiyotga berilib, kelajak oqibatlarini chuqur o'ylamasdan qaror qabul qiladi. Bu esa keyinchalik turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yana bir muhim omil — oilaviy va ijtimoiy bosimdir. Ba'zi hollarda ota-onalar yoki atrof-muhit yoshlarni erta turmush qurishga undaydi. Bu esa yoshlarning shaxsiy istagi va tayyorgarligini hisobga olmasdan qabul qilingan qaror bo'lishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan, bu muammoning oldini olish uchun avvalo yoshlarning ongini rivojlantirish muhimdir. Ularga hayotiy maqsad qo'yish, kelajak rejasini tuzish va mustaqil fikrlashni o'rgatish zarur. Bu jarayonda maktab psixologi va o'qituvchilar muhim rol o'ynaydi.

Samarali chora-tadbirlardan biri — bu targ'ibot va tushuntirish ishlaridir. Maktablarda o'smirlar bilan suhbatlar, treninglar va seminarlar tashkil etilib, erta

turmushning salbiy oqibatlari haqida ma'lumot berilishi kerak. Bu yoshlarning ongli qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Shuningdek, ota-onalar bilan ishlash ham juda muhimdir. Ularga farzandning psixologik tayyorgarligi, ta'lim olishining ahamiyati va mustaqil hayotga tayyorlanishi haqida tushuntirish zarur. Ota-onaning to'g'ri yondashuvi muammoning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham muhim chora hisoblanadi. Sport, to'garaklar, ijodiy mashg'ulotlar orqali ular o'z qiziqishlarini rivojlantiradi va turmush qurishdan oldin o'zini anglash imkoniga ega bo'ladi.

Psixologik maslahatlar ham katta yordam beradi. Individual suhbatlar orqali yoshlarning ichki kechinmalari, muammolari va qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklari aniqlanadi. Bu esa ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishga yordam beradi.

**Erta turmush qurish** — balog'at yoshiga yetib ulgurmagan, o'smirlilik davrida, jinsiy tomonlama to'liq shakllanmagan yigit-qizlarning oila qurishi hisoblanadi.

Oila — muqaddas dargoh. Oilaning asosiy vazifasi insoniyatning zanjirini sog'lom va iqtidorli avlodlar bilan bog'lab borishdan iborat. Nikoh — bu erkak bilan ayol o'rtasidagi muayyan ittifoq va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi va ma'qullanishining tarixiy shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek: „Oila hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, xalqimizning muqaddas urf-odatlarini sayqal topadigan, kelajak avlod kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir“.

Nikoh yoshi mamlakatga bog'liq va qizlar va o'g'il bolalar uchun farq qilishi mumkin. Yaqin vaqtgacha ko'plab mamlakatlarda qizlarning turmush qurish yoshi o'g'il bolalarnikiga qaraganda pastroq bo'lgan bo'lsa, hozir ko'p joylarda gender tengligini saqlash maqsadida qiz bolalar yoshiga ko'tarildi. Nikoh uchun talab qilinadigan yosh va boshqa shartlar har bir mamlakatda bir-biridan farq qiladi, lekin qoida tariqasida, yosh o'n sakkiz yoshdan boshlab belgilanadi. Aksariyat mamlakatlar ota-onalarning roziligi yoki sud ruxsati bilan oldindan belgilangan yoshda turmush qurishga ruxsat beradi, ba'zi mamlakatlar esa, agar qiz homilador bo'lsa, yoshlarga turmushga chiqishga ruxsat beradi. Nikoh yoshini ko'pchilik tug'ilish yoshi yoki jinsiy rozilik yoshi bilan aralashtirib yubormaslik kerak, garchi ba'zi joylarda ular bir xil bo'lishi mumkin. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda nikoh uchun qonuniy yosh chegaralari faqat ko'rsatmalarda belgilab qo'yilgan. Ba'zi jamiyatlarda 18 yoshga to'lmagan shaxs (odatda qiz bola) bilan turmush qurish yosh nikoh deb hisoblanadi. 1962-yilda 55 ta davlat nikoh uchun eng kam yoshni qonunchilik bilan belgilash, shuningdek, urf-odatlar, diniy va qabilaviy (klan) qonunlarini bekor qilish uchun nikohga ruxsat berish, nikoh uchun eng kam yosh va nikohni qayd etish to'g'risidagi konvensiyani qabul qildi. Nikoh yoshi diniy qonunga ko'ra, mamlakat qonuniga

qaraganda pastroq bo'lsa, davlat qonuni tomonidan ustunlik qiladi. Biroq, ayrim diniy jamoalar bu masalada qonun ustuvorligini tan olmaydi, bu esa bolalar yoki majburiy nikohga olib kelishi mumkin. Qullikka barham berish to'g'risidagi 1956-yildagi qo'shimcha konventsianing 123 ta ishtirokchisi nikoh uchun eng kam yoshni qabul qilishga kelishib oldilar.

Organizmning yetuklik yoki balog'atga yetganligi ijtimoiy tomondan uning turmush qurishga tayyor ekanligini bildiradi. Balog'atga yetganlik belgilariga, ham jismonan, ham aqlan rivojlanganlik, mas'uliyat va javobgarlik hissini tuyuvchi, tibbiyot jihatdan esa ikkilamchi jinsiy bezlarning to'liq shakllanganligi, organ va organlar sistemasining takomillashganligi, qiz bolalarda homiladorlikka anatomik tayyor ekanliklari kabi belgilar bilan belgilanadi. O'spirinlik yosh davrida qiz bolada 13 yoshdan to 18 yoshgacha, o'g'il bolada 15-16 yoshdan to 19-20 yoshgacha davom etadi. Ushbu davr jinsiy bezlar funksiyasini kuchayishi, ikkilamchi jinsiy organlar shakllanishining yakunlanishi bilan tavsiflanadi. Boshqa ichki sekretiya bezlarining, ayniqsa, gipofiz va qalqonsimon bezning funksiyalari ham kuchayadi. Timus bezi bundan mustasno, uning involyusiyasi davom etadi. Barcha azolar va tizimlar funksiyasi, uzluksiz rivojlanish oqibatida, sezilarli darajada takomillashadi. Ana shu davr o'tib, balog'at davriga o'tganidan so'ng turmush qurishga tavsiya beriladi. Lekin voyaga yetmagan qiz bolalarni erta turmushga berish hozirgi kundagi eng dolzarb global muammolardan biriga aylanib bormoqda.

Erta nikoh 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxsning rasmiy yoki norasmiy ittifoqi bo'lib, inson va bola huquqlari buzilishidir. Erta nokohlarga barxam berish butun dunyoda Barqaror rivojlanish maqsadlarining 5-maqsadi doirasida gender tenglikka erishining asosiy maqsadi sifatida e'tirof etilgan. U Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Aholi va taraqqiyot bo'yicha xalqaro konferensiya va uning Harakat dasturiga kiritilgan. 2020 yilda Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasi 3-qo'mitasida bolalar, erta va majburiy nikox bo'yicha rezolyusiya konsensus yo'li bilan qabul qilingan, unda bolalar, erta va majburiy nikox (turmush qurish) tugatish uchun asosiy sabablari va javob choralari ta'kidlangan. Erta nikohlarni ta'qiqlashga qaratilgan qonunlar qabul qilinishi va chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, global miqyosda bunday amaliyot tabora qisqarishiga qaramay hanuzgacha yuqoriligicha qolmoqda. Jahonda 18 yoshga to'lmagan har bir beshinchi qiz rasmiy yoki norasmiy nikohdan o'tgan, 15 yoshgacha bo'lganlar orasida bu ko'rsatkich 5%. Rivojlanish darajasi past bo'lgan davlatlarda bu ko'rsatkich o'ta yuqori bo'lib 36%ni, xususan 15 yoshgacha bo'lgan qizlar orasida esa 10%ni tashkil etmoqda.

Ba'zi insonlar Islom dini qizlarni barvaqt uzatishga chaqiradi, degan noto'g'ri tushunchada yuradilar. Bu – asossiz gap. Islomda hali balog'atga yetmagan, turmushga tayyor bo'lmagan o'smir qizlarni uzatish yoki nikohlash lozim, degan gap yo'q. Hatto

balog'atga yetgan, jismoniy tarafdin turmushga tayyor yigit, agar oilani boqa olmasa, uning uylanishi shart emasligi aytiladi.

Ta'kidlash kerakki, hozir shifokorlar 16–17 yoshli qizlar turmushga tayyor emasligi, homiladorlik va tug'uruq holatida qiynalib qolayotganini aytib, ularni 19–20 yoshlarida turmushga berishni, yigitlarga 20–22 yoshlarda uylanishni tavsiya qilishmoqda. Ikki yosh rasmiy nikohdan o'tish uchun to'ydan bir oy oldin joylardagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) idoralariga ariza topshiradi. Shunda ularga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beriladi. Tibbiy ko'rik varaqasi to'ldirilgan holdagina fuqarolarning rasmiy nikohi qayd etiladi. Kelinkuyovlarni to'ydan oldin majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish talabi bejiz qo'yilmagan. Navnihol yigit yoki qiz yashirin tarzda kechayotgan biror dardga chalingan, uni o'zi ham sezmay yurgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Kamqonlik, yurak-qon tomir, buyrak hastaliklarini davolamay turib homilador bo'lish nogiron bolalar tug'ilishiga olib kelishi hayotda ko'p isbotlangan.

Xastaliklarni oila qurishdan avval davolash oson. Davlatimiz yaratayotgan bu kabi sharoitlar sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali oila mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan. Zero, oilada yigit va qiz o'z vazifa va mas'uliyatlarini ado etishlari, sog'lom zurriyotlarni dunyoga keltirishlari uchun avvalo o'zlari sog'lom bo'lishlari kerak. Hozirga kelib tibbiy ko'rikning ahamiyatini aksariyat ota-onalar tushunib yetdilar. Ammo shunday bo'lsa-da, "Hali turmushga chiqmagan yosh qiz turli yo'nalishdagi shifokorlarga uchrab yurishining nima keragi bor?" deb tor mulohaza yuritadiganlar ham yo'q emas. Ana shunday fikrlash sababli tibbiy ko'rikning talab darajasida o'tkazilishiga e'tibor bermay, giyohvandlikka berilgan yoki nasliy kasalligi bo'lgan kuyovga uzatish oqibatida baxtsiz qolgan qizlar, pushaymon chekkan ota-onalar hayotda uchrab turibdi.

Aksariyat erta oila qurgan qizlarda kamqonlik, kamquvvatlik kuzatiladi. Bu hol kelinlarning uzoq vaqt bo'yida bo'lmasligi, homiladorlik og'ir kechishiga, go'daklar nobud bo'lishi yoki nogiron tug'ilishiga, tug'uruqdan keyingi turli asoratlarga, hatto bepushtlikka olib kelishi mumkinligini shifokorlar ta'kidlaydi. Payg'ambarimiz (alayhissalom): "Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir", deb ta'kidlaganlar (Bayhaqiy rivoyati). Zaruriy ko'nikmalarni egallamay, bilim olmay turib turmushga chiqqan qiz ayol, rafiqqa, ona, beka, jamiyat a'zosi sifatidagi vazifalarini to'kis ado etishga qiynaladi. Yoshlar 9 yil o'rta umumta'lim maktabi, undan so'ng litsey va kollej ta'limini olishlari shart.

Zero, dinimiz ta'limotlariga ko'ra ilm olish, ma'rifatli bo'lish, hayot uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikmalarni o'rganish har bir qiz bola uchun ham farzdir. Bordi-yu, shundan oldin turmush qursalar, o'qish ham chala, oila yumushlari ham, uy bekaligi va boshqa ishlar ham chala bajarilishiga yo'l ochilgan bo'ladi. Muhimi, ilmi va kasb-hunarli ayolgina farzandining komil inson bo'lishiga intiladi. Turmush qurish, oila

tebratish va farzand tarbiyasi kabi muhim ishlarda diniy va milliy an'analarimizga rioya qilish, oila va nikoh borasida davlatimiz chiqargan qonun-qoidalarga qat'iy amal qilish zarur. Afsuski, hozirgi kunda ba'zi chalasavod kishilar o'zboshimchalik bilan yuqorida aytilgan nikoh shartlari bajarilishini so'rabsurishtirmay, boz ustiga, yoshlarga oilada er va xotinning haq-huquqlarini, taloq masalalarini tushuntirmasdan, kelin-kuyovlarga nasihat qilmasdan, yengil-yelpi shar'iy nikoh o'qimoqdalar. O'zlarining chalasavod ekanliklarini bilganliklari uchun ikki yoshni nikohlashdek mas'uliyatli ishni "eng ichida" o'tkazishga urinadilar.

Bugungi kunda o'quvchilar o'rtasida erta turmush qurish holatlarining oldini olish muhim ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda targ'ibot ishlari katta ahamiyatga ega, chunki yoshlar ongiga to'g'ri tushuncha berish orqali ularning kelajak hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

Erta turmush qurish ko'pincha yetarli bilim va hayotiy tajribaning yo'qligi, hissiyotlarga berilish yoki atrof-muhit ta'siri natijasida yuzaga keladi. Shu sababli targ'ibot ishlari avvalo yoshlarning ongini rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Maktablarda olib boriladigan targ'ibot ishlari turli shakllarda tashkil etilishi mumkin. Eng samarali usullardan biri — suhbat va davra suhbatlaridir. Bu jarayonda o'quvchilar bilan ochiq muloqot olib borilib, erta turmushning oqibatlarini haqida tushuntirish beriladi.

Shuningdek, treninglar va seminarlar ham muhim o'rin tutadi. Psixologlar tomonidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, hayotiy maqsad qo'yish va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Rol o'yinlari va hayotiy vaziyatlar asosida mashg'ulotlar o'tkazish ham samarali hisoblanadi. Bu orqali o'quvchilar turli vaziyatlarni his qiladi va ularning oqibatlarini tushunadi. Bunday yondashuv nazariy ma'lumotdan ko'ra ko'proq ta'sir qiladi.

Ota-onalar bilan ishlash ham targ'ibotning muhim qismi hisoblanadi. Ota-onalarga farzandining psixologik tayyorgarligi, ta'lim olishining ahamiyati va erta turmushning salbiy tomonlari haqida tushuntirish berilishi zarur.

Mahalla bilan hamkorlikda o'tkaziladigan tadbirlar ham muhimdir. Mahalla faollari, mutaxassislar va tajribali insonlar ishtirokida uchrashuvlar tashkil etish yoshlar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Targ'ibot ishlarida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan ham foydalanish mumkin. Qisqa videolar, maqolalar va motivatsion chiqishlar orqali yoshlarni to'g'ri yo'naltirish samarali natija beradi.

Eng muhimi, targ'ibot ishlari majburlash emas, balki tushuntirish va ishonirish asosida olib borilishi kerak. Yoshlar o'z kelajagi uchun ongli ravishda qaror qabul qilishni o'rganishi lozim. O'quvchilar o'rtasida erta turmush qurishning oldini olish targ'ibot ishlari orqali samarali amalga oshiriladi. Oila, maktab va mahalla

hamkorligida olib borilgan tizimli ishlar yoshlarning sog‘lom va ongli hayot yo‘lini tanlashiga yordam beradi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, erta turmush qurishning oldini olish kompleks yondashuvni talab qiladi. Psixologik, pedagogik va ijtimoiy choralar birgalikda qo‘llanilgandagina samarali natijaga erishish mumkin. Eng muhimi, yoshlarning ongli, mustaqil va mas‘uliyatli qaror qabul qilishi uchun sharoit yaratish zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. – Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari – yoshlar siyosati va oila masalalariga oid hujjatlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Oila to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. G‘oziyev E.G‘. – Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
6. Davletshin M.G. – Pedagogik psixologiya. Toshkent, 2005.
7. Nishonova Z.T. – Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent, 2012.
8. Mavlonova R., To‘raqulov X. – Pedagogika. Toshkent: O‘qituvchi, 2009.
9. Sodiqova Sh. – Oila psixologiyasi. Toshkent, 2011.
10. Qodirov B.R. – Yosh davrlari psixologiyasi. Toshkent, 2010.
11. Freud Z. – Psixoanalizga kirish. (rus tilidan tarjima)